

TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIK KONSILIUMNING AHAMIYATI

Komilova Fotima Maxmudovna

Andijon davlat universiteti p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim tizimini boshqarishda pedagogik konsiliumning ahamiyati, konsilium tushunchasi, konsilium a'zolari va ularning vazifalari, psixologik-pedagogik konsilium o'quv o'yini haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *konsilium, tarbiyasi og'ir o'smirlar, individual, psixologik xususiyat.*

KIRISH

Psixoprofilaktik ishlarining usullaridan biri pedagogik psixologik konsiliumni tashkil etishdir. Yu.K. Babanskiyning ta'kidlashicha, o'quvchilarni o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun, to'liq yozma tavsifnomalar yozishdan ko'ra sinf o'qituvchilarining o'quvchilar haqidagi fikrlarini bo'lib muhokama qilish, sinfga va o'quvchilarga individual yondashuv choralarini jamoa ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Bunday jamoa bo'lib, muhokama qilishlarni shartli ravishda pedagogik - psixologik konsilium deb ataladi. Psixologik pedagogik konsilium o'qishda orqada qolish sabablarini yoki xulq-atvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Konsilium (lotincha konsilium-kengash, maslahatlashish)- bir yoki bir qancha sohalardagi mutaxassislarining ma'lum muammoni mukammal o'rganish va hal etish usullarini aniqlash uchun kengashishdir.

Bu tushuncha ko'p fanlarda, psixologiya va pedagogikada ham qo'llaniladi. O'smirlar xulqidagi salbiy o'zgarishlarni o'rganish uchun bu atamani qo'llashda hech bir g'ayritabiiylik yo'q. Chunki bu masala o'quvchi xulqidagi o'zgarishlarni har tomonlama o'rganishni, tarbiya jarayonida xatoga yo'l qo'ymaslikni, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishni kafolatlaydi.

Psixologik-pedagogik konsilium- bu ota-onalar, pedagoglar, psixologlar, metodistlar va boshqalarning o'smir xulqidagi salbiy o'zgarishlar sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishni o'rganishdir.

ASOSIY QISM

Psixologik-pedagogik konsiliumning maqsadi - o'quvchini psixologik jihatdan mukammal o'rganish va tahlil qilish (uning psixik rivojlanganlik darajasini, shaxsiy sifatlarini, xarakterini temperamentini, o'qishdagi va oiladagi sharoitini, sog'lig'ini, o'quv guruhidagi mavqeini, tengdoshlari orasidagi tutgan o'rnini o'rganish va o'quvchiga uning ota-onasiga, pedagoglarga yordam berish).

Psixologik-pedagogik konsilium faqatgina tarbiyasi og'ir o'smirlar uchungina emas, balki individual psixologik xususiyatlarga ko'ra oilasida, o'quv guruhida yoki o'zining ichki qiyinchiliklariga uchragan o'smirlar uchun ham foydalidir.

O'smirlarning psixik rivojlanish qonuniyatlari, ularga tasir qiluvchi sabablarni o'rganish oilada va ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri yo'l tutish imkonini beradi.

Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi - o'quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o'qituvchilarga har xil tomondan yondashuvga yordamlashishdan iborat. Pedagogik konsilium imkoniyatlarini baholashda ob'ektivizmdan holi bo'lishga, ularni ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Lekin, baxtga qarshi o'qituvchilarda u yoki bu haqida o'z fikri bo'ladi, bu fikrlarni o'zgartirish juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun konsilium natijasi foydali bo'lishi uchun psixolog unga jiddiy tayyorlanishi kerak. Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa o'quvchi psixik va shaxsiy tavsiyanomalarini turli tomondan ko'rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta'kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixodiagnostika natijalariga asoslanib, o'quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur.

2. Har bir o'qituvchida o'quvchiga nisbatan ustanovkasini o'zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo'lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o'tkazguncha sekin-asta boshlash kerak. Ko'pincha o'quvchi o'quvchiga nisbatan fikrini o'zgartirgisi kelmaydi. O'qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o'z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi.

3. Barcha o'qituvchilarning o'quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo'lib, tushunishlariga erishish. Faqat ana shu holda o'quvchi foydasiga o'zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin.

Shunday qilib, psixologik - pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium o'quvchilarning, o'qituvchilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik konsilium ishtirokchilari.

PPK o'quvchilarni, ota-onalarni yoki o'qituvchilarni jazolovchi, ko'rsatma beruvchi tashkilotga aylanib qolmasligi kerak. Shuning uchun PPK olib boruvchilar yuqori malakali mutaxassislar bo'lishi kerak, pedagoglar, psixologlar, mediklar, psixiatrlar, narkologlar, militsiya xodimlari PPK ning doimiy ishtirokchilari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari, o'quvchining ota-onalari, to'garak rahbarlari va boshqa kishilar taklif qilinishi mumkin.

Konsilium rahbari. Konsilium rahbari konsiliumning muntazam ishlashini nazorat qilish kabi ishlarni olib boradi. Maktab (o'quv bilim yurti) ning rahbarlaridan biri konsiliumning rahbari bo'lishi mumkin.

Konsilium kotibi. Konsilium kotibi (psixolog) o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, o'quvchiga xarakteristika yozadi yoki bu borada sinf rahbariga yordam beradi, PPK yordamiga muhtoj o'quvchilar ro'yxatini tuzadi, konsilium a'zolari bilan aloqa bilan aloqa bog'lab turadi.

Maktab (bilim yurti) vrachi o'quvchi sog'lig'i va uning sog'lig'ini mustahkamlash borasida olib borilgan ishlar haqida ma'lumot beradi, o'quvchi bilan psixoprofilaktika ishlarini olib boradi, ish va dam olishni nazorat qiladi.

Balog'atga yetmagan yoshlar bo'yicha inspektor. Agar o'quvchi uning hisobida turgan bo'lsa, uning do'stlari, kimlar bilan ko'proq vaqt o'tkazadi, u bilan qanday ishlar olib borilganligi haqida ma'lumot beradi. PPK taklifiga ko'ra o'smirlar guruhini tarqatib yuboradi, liderning ta'siriga qarshi ish olib boradi, yoshlarga salbiy ta'sir qilayotgan kattalarni aniqlaydi.

Maxsus-maslahatchi (konsultant). Maxsus-maslahatchi (konsultant) zarurat bo'lgan hollarda taklif qilinadi. Bu narkolog, psixiatr, psixonevrolog yoki logoped bo'lishi mumkin. Ular to'g'ri diagnoz (tashxis) qo'yish va to'g'ri tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Psixolog. Psixolog konsiliumning asosiy ishtirokchisidir. Psixolog qo'yilgan diagnoz (tashxis) ning to'g'riligi, qo'llanilayotgan yordam va tarbiya metodlarining adekvatligi, o'quvchi bilan olib borilayotgan ishlarning maqsadga muvofiqligi konsilium natijalari bo'yicha shaxsan javob beradi.

Sinf rahbari (guruh rahbari). Sinf rahbari (guruh rahbari) o'quvchiga tavsifnoma yozadi, u bilan ishlash jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni bayon qiladi, konsilium oldiga ma'lum talablar qo'yadi, kuzatish kundaligini to'ldirib boradi.

Lozim bo'lganda taklif qilingan ijtimoiy tashkilotlardan kelgan kishilar (trener, to'garak rahbari, mahalla kengashi a'zosi va boshqalar) o'quvchi haqida o'z fikrlarini bildiradi va zarur ishlarni amalga oshirishni o'z bo'yniga oladi.

Konsilium ishini tashkil qilish. Konsilium kengashi bir oyda bir-ikki marta o'tkaziladi. Konsilium faoliyati o'quv yili boshidan boshlanadi. Bilim yurti rahbarlari va psixolog yillik reja tuzadi, yordamga muhtoj o'quvchilar ro'yxatini oladi, asosiy qilinadigan ishlarning yo'nalishlarini aniqlaydilar.

Kengash uch bosqichda o'tkaziladi:

1. O'quvchi haqida ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish (olingan ma'lumotlar, tavsifnoma, o'zlashtirish natijalari va h.k.) va ularga aniqlik kiritish);

2. O'quvchining ota-onalari bilan suhbat (o'quvchining o'zi ishtirok etmaydi), o'quvchining o'zi bilan suhbat, ijtimoiy tashkilot rahbarlari, sinf rahbari bilan suhbat o'tkaziladi;

3. Fikr almashish, xulosa chiqarish, o'quvchiga yordam berish yo'llarini aniqlash. Maslahatlar, tavsiyalar ishlab chiqish.

Kengash bir o'quvchiga taxminan bir soat ajratadi. Kengash ishida rahbarni to'g'ri tanlash mumkin. Bilimli, sermulohazali rahbar kengash ishini haqiqiy maslahatga, yordamga aylantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Psixologik-pedagogik konsilium o'quv o'yinini o'tkazish

Barcha guruh talabalari PPK haqidagi nazariy bilimlarni, uning ahamiyati va maqsadini chuqur o'rgangandan keyin ular bilan rolli o'yin o'tkazish taklif qilinadi. O'yinning maqsadi - xulqidagi salbiy o'zgarishlarning mohiyatini ilmiy tushunish, bu salbiy o'zgarishlarning oldini olish, bartaraf qilish bilan bog'lik ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

O'yinning vazifalari:

-psixologiyadan va pedagogikadan olingan bilimlarni mustahkamlash; -tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usuli va metodlarini o'rganish; -xulqidagi salbiy o'zgarishlarning ilmiy jihatdan baholashga o'rganish; -zamonaviy tarbiya metodlarini hayotga tadbiiq qilishga o'rgatish. O'yinni o'tkazish uchun barcha o'quvchilar (talabalar) o'zlari amaliyotda bo'lgan bilim yurti o'quvchisiga yoki o'zining sinfdoshiga psixologik xarakteristikalar yozib keladilar. Darsning birinchi yarmida shu xarakteristikalar, ularning kamchiliklari, yutuqlari muhokama qilinadi (3-4 xarakteristikani muhokama qilish yetarli). Keyin o'quvchilar o'zaro rollarni (tarbiyasi qiyin o'quvchi, uning otasi, akasi, yaqin do'sti, sinf rahbari, psixolog, maktab (bilim yurti) rahbari, kotib, vrach va h.k.) bo'lib oladilar.

Har bir talabaga uning vazifasi tushuntiriladi. Qolgan talabalar esa ekspertlik vazifasini bajaradilar. Ular o'yin davomida yo'l qo'yilgan xatolarni yozib boradilar. Masalan o'quvchiga, ota-onaga to'g'ri savol berildimi, to'g'ri diagnoz qo'yildimi, o'quvchining xulqini to'g'ri baholadimi, tavsiya qilingan ishlar maqsadga muvofiqmi va h.k.

O'yin davomida psixologiya fanidan olingan bilimlarni keng qo'llashga erishish kerak. Shaxs, temperament, xarakter, o'smirlar psixologiyasiga bog'langan mavzularni amalda qo'llay olish lozim.

Sinf rahbari o'quvchilarining imkoniyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda o'yin turli shakl va variantlarda o'tkazilishi mumkin.

Psixologik-pedagogik konsilium quyidagicha o'tish mumkin.

PPK o'tkazish uchun o'quvchilar (talabalar) rollarni bo'lishib oladilar va tayyorlanadilar.

Kengashni raislik qiluvchi olib boradi. U kengashda nechta o'smir va nima uchun taklif qilinganligini. Qilinishi zarur bo'lgan ishlar haqida ma'lumot beradi. Kengash a'zolari bilan tanishtirib chiqadi. (agar yangi kishilar bo'lsa). Keyin sinf rahbariga so'z beradi.

"Sinf rahbari" oldindan tayyorlangan tavsifnomaga asoslanib, o'quvchining xulqi, xarakteri, temperamenti va qiziqishlari, o'qishga bo'lgan munosabati, uyda o'zini tutishi, darsda va darsdan bo'sh vaqtlarida kim bilan, qayerda o'tkazishi, va h.k.lar haqida ma'lumot beradi. "Sinf rahbari" iloji boricha "O'z o'quvchisi"ni to'liq ta'riflashga, xulqidagi salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni ochib berishga harakat qilishi lozim.

Keyin kengashga o'quvchining "ota-ona"si taklif qilinadi. Kengash a`zolari ularga muloyimlik, odoblilik bilan, juda ehtiyot bo'lgan holda savol beradilar. Ular bolaning rivojlanishini qanday kechganini bosqichma-bosqich muhokama qiladilar. Masalan: tug'ruq vaqtida yoki keyinroq jarohatlanish, lat yeyish, zaharlanish kabi voqealar bo'lganmi? Oilada nechanchi farzand? Akalari, opalari, singillari, ukalari, bilan qanday munosabatda? Ota-onalari bilan munosabati qanday?

XULOSA

Shu tartibda barcha konsilium a`zolarining fikrlari eshitiladi va yuqorida ko'rsatilgan nazariy bilimlardan foydalanib tavsiyalar ishlab chiqadilar.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi tizimida psixologik maslahat to'g'risida"gi muvaqqat. Nizom-Toshkent, 2002 yil 1 avgust.

2. Nishonova Z. T. Psixologik maslahat. Toshkent, 2006y.

3. Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologiya T. 1-2-M.,1999g.

4.Umumiy psixologiya. M.G.Davletshin., S.M. To'ychieva.-T., 2002.
7.V.Karimova. Psixologiya T. 2002 yil.

5A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement
<http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> Том. 11 № 5 (2023):
ФИДЖЕШ

6A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili
<https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023):
[pedagogical sciences and teaching methods](https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533) 247-254–bet

7A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
<https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106> vol. 2 no. 22
(2022): [ijodkor o'qituvchi](https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106) 381-386-bet

8A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. 1
no. 12 (2022): [o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali](https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272) 453-459-bet

9Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI
<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>

10 Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.

11 Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.

12 Akhmedova F. [Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan](#)- Eastern European Scientific Journal, 2018